

Xadjiyeva Nodira

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

ingliz tili 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Ingliz va O'zbek tilida frazeologiyaning qo'llashda ishlatiladigan sinonimik, antonimik, paronimik hodisalar hamda bir-birining orasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya, sinonimiya, antonimiya, paronimiya, ma'no farqlari.*

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi, tilidagi ma'noni saqlab qolish maqsadida qo'llanadigan frazalar haqida ma'lumot beradi. Frazeologiya ko'chma ma'nosidan o'zgarishlar hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyo bo'ylab, keng tarqalgan tillarning ham o'z tilshunoslik doirasida frazeologiyadan foydalanishadi. Xususan, ingliz tilini o'ladigan bo'lsak, ingliz tilida ham frazeologiyalardan unumli foydalanishadi. Asosan, yozish, gapirish kabi inson o'zi tomonidan kanteks yaratiladigan bo'lsa, frazeologiyadan foydalanish eng yaxshi usullardan biridir. Gapirayotgan nutqimizga sayqal beradi, yozayotgan matnimizning badiiyligini ta'minlaydi. Frazeologiya shakl munosabati asosida frazeologik omonimiya, sinonimiya, paronimiya yuzaga keladi. Va bunda bitta so'z ma'nosini butun bir frazeologik birlik ifodalaydi.

Frazeologik omonimiya: frazeologiyalarning ifodalayotgan ma'nosi jihatdan tengligidir. Frazeologik tenglik bu- qo'llangan frazeologiyalarning ko'chma ma'nosidan tashqari o'z ma'nosi borligini ifodalaydi. Bitta frazeologiyani o'z ma'nosidan tashqari ko'chma, ma'nolari ham mavjudli asosida frazeologik omonimiya vujudga keladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak:

1. Jon bermoq – ma'nosi: “ o'lmoq” “ so'nggi nafasini chiqarmoq”

Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to'la osmonga termulib jon berdi. (Sh. Rahmatullayev 138-b)

2. Jon bermoq – ma'nosi: “barhayot qilmoq”

...- Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganing o'zi.

(U. Tursunov)

3. Ustidan chiqmoq- ma'nosi:“Biror narsa qilayotganda tepasiga borib qolmoq”

Qaynanangiz rosa sevar ekan, rais, - dedi Ro'zi polvon hazil aralash, - ovqatning ustidan chiqdingiz. (Sh. Rahmatullayev)

4. Ustidan chiqmoq – ma'nosi: “bajarmoq ”

Demak, Hakimov telefonda bergan so'zining ustidan chiqibdi. (P. Qodirov)

Frazema(o'zgarimas birikma) hamda so'z(erkin birikma) o'rtasidagi tenglikni hodisasini biz omonimiya emas, aksincha frazeologik omonimlik deb ataymiz. Bundan ko'rinadiki, “omonimiya” va “omonimlik” bir-biridan farqlanadi. Bunga misol qilib:

1. Ko'z yummoq(turg'un birikma, frazema)- ma'nosi: “ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq.

2. Ko'z yummoq(erkin birikma)- ma'nosi: “Ko'zini yumib olmoq”.

3. Ko'z yummoq(turg'un birikma, frazema)- ma'nosi: “vafot etmoq”.

Frazeologik paronimiya – qo'llanilgan gap tarkibida bir yoki ikkita leksik birlik bilan farqlanuvchi frazemalar. Bunday vaqtda leksik birlik asosan, bir-biriga o'xshash bo'lishi zarur. Misol qilib aytsak:

1. Yetti uxlab tushiga kirmaslik – ma'nosi: “ mutloqo u haqida o'ylamaslik”.

2. Yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik – ma'nosi “ hech qachon ko'rmaslik, bilmaslik”. Bu ikki frazemalar ma'nosida ham, “kirmaslik”, “ ko'rmaslik” so'zlari bilan ham bir- biriga paronimiya bo'lib kelgan.

Frazeologik sinonimiya – bir nechta frazemalarning bitta frazema atrofiga birlashishi hodisasiga aytiladi. Misol qilib :

1. Pixini yorgan odam – ma'nosi: “ ayyor odam”.

2. Ilonning yo'g'ini yalagan odam ekan – ma'nosi: “ ayyor odam”.
3. Yer bilan osmoncha – ma'nosi: “ Juda katta farq”.
4. Ot bilan tuyacha – ma'nosi: “ Juda katta farq”.

Leksik birliklarda sinonimiya bo'lgani kabi, frazalar orasida ham sinonimiya hodisasi uchraydi. Buni biz yuqoridagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

Sinonimiya asosan leksik birlik, hamda iboralar orasida keng tarqalgan. Buyuk frazeologik tilshunos A. B. Kunin frazeologik sinonimlarga quyidagicha ta'rif bergan: “ Frazelogik sinonimlar bu koreferent frazeologizmlar bo'lib, bir grammatik sinfga kiruvchi, umumiy hamda differensial semantik komponentlarga ega bo'lgan, stilistik jihatdan o'xshash va noo'xshash bo'lgan birliklardir”.

Agar biz sinonim deb ataydigan iboramiz, bir xil ma'noni anglatmasa, ular sinonim iboralar hisoblanmaydi. Leksik tarkibida bir xil so'z qatnashmasa, biz ularni sinonim deb ayta olmaymiz degani emas, aksincha ular ma'no jihatdan bir xil ma'noni anglatasa, demak ular frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Masalan:

1. Like a bat out of hell-go – ma'nosi: “bir zumda”
2. like a bomb-in a crack –ma'nosi: “tezda” iboralari sinonim

ekanligiga

shubha yo'q. Lekin shuni unutmaslik kerakki sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan:

1. on one's own- under one's
2. own power of one's own hat (mustaqil ravishda) sinonimik qator

tarkibidagi

“own” so'zi takrorlanayotganiga qaramay ular variantdosh emas, sinonim birliklar hisoblanadi.

Sinonimlik uchun xos bo'lgan umumiy ma'no semalaridan tashqari o'ziga xos ma'no qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, an eager beaver hamda ball off fire sinonimlari uchun umumiy sema, ”tinib tinchimas”lik bo'lsa,

birinchi birlik ko‘proq tirishqoq, serharakat ishchilarga nisbattan qo‘llaniladi. Ikkinchi iboramiz esa olov, uchar, epchil odamlarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuning uchun ularni uslubiy xoslangan tarzda qo‘llash shart.

Xulasa qilib shuni aytib o‘tish kerakki o‘zbek va ingliz tilida antonimlik, sinonimlik, paronimlik hodisalarini o‘rganish frazeologizmni ko‘proq tushunishga hamda ularning semantik ma‘no munosabatlarini kengroq darajada targ‘ib qilishga yordam beradi. Aynan ma‘na shular tufayli frazeologik birliklarning ma‘noviy hamda, leksik tuzilishining o‘ziga xosliklarini ifodalab ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yormat Tojiyev, Hakimjon Shamsiddinov, Ravshanjon Rasulov. (Hozirgi o‘zbek adabiy tili). Toshkent- “ Talqin”- 2005
2. Rahmatullayev Sh.U. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. –T.: “Universitet”, 1999(qayta nashr 2003)
3. Баходирова, Ф. Б. Ingliz tilida frazeologik sinonimya / Ф. Б. Баходирова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 24 (262). — С. 533-535. — URL: <https://moluch.ru/archive/262/60434/> (дата обращения: 01.04.2024).
4. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — Дубна: Феникс, 2005. — 466с.
5. Кунин А. В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англорусского фразеологического словаря: — М., 1964. –38 с.
6. Кунин А. В. Английская фразеология (теоретический курс). — М.: Издательство «Высшая школа», 1970. — 344 с
7. Muminov O. English Lexicology. Tashkent., 2006.-109–116b